

O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.09.1993 yildagi 913-XII-son

Дата вступления в силу

18.09.1993

Дополнительная информация

Поделиться

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI TO'G'RISIDA I BOB. UMUMIY QOIDALAR

1-modda. Mahalliy vakillik va ijroiya hokimiyati

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari davlat hokimiyatining vakillik organlaridir.

(1-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-avgustdagi O'RQ-439-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 35-son, 914-modda)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Tegishli hududdagi ijro etuvchi hokimiyatga viloyat, tuman va shahar hokimi boshchilik qiladi. Viloyat hokimi, Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va tegishli xalq deputatlari Kengashi oldida hisobdordirlar. Tuman, shahar hokimi yuqori turuvchi hokim va tegishli xalq deputatlari Kengashi oldida hisobdordir.

(1-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son — viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari deputatlarining navbatdagi saylovi yakunlari bo'yicha amalga kiritiladi)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Xalq deputatlari Kengashi va hokim viloyat, tuman va shahar uchun umumiy bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalari amalga oshirilishini, joylarda qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qabul qilgan hujjatlar, yuqori turuvchi xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar qarorlarining ijrosini, O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi aloqalarni, aholini viloyat, tuman va shaharni boshqarishga jalb etishni ta'minlaydi.

(1-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 3-dekabrdagi 714-II-sonli Qonuni tahririda — O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2004-y., 51-son, 514-modda)

Mahalliy hokimiyat vakillik organlari va hokimlar O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan muhrga ega bo'ladilar.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

2-modda. Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat boshlig'ini lavozimiga tayinlash va lavozimdan ozod etish

(2-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Viloyat va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Viloyat va Toshkent shahar hokimi nomzodlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tegishli xalq deputatlari Kengashlaridagi partiya guruhlarining (bundan buyon matnda partiya guruhlari deb yuritiladi) har biri bilan maslahatlashuvlar o'tkazilganidan so'ng xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi.

(2-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Viloyat va Toshkent shahar hokimi lavozimiga nomzod tegishli xalq deputatlari Kengashida uning nomzodi ko'rib chiqilayotganda hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning istiqbolga mo'ljallangan dasturini taqdim etadi.

(2-modda O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuniga asosan uchinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son — viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari deputatlarining navbatdagi saylovi yakunlari bo'yicha amalga kiritiladi)

Tegishli xalq deputatlari Kengashi deputatlari umumiy sonining ko'pchilik ovozini olgan viloyat va Toshkent shahar hokimi nomzodi tasdiqlangan hisoblanadi.

Agar ovoz berish vaqtida viloyat va Toshkent shahar hokimi nomzodlari tegishli xalq deputatlari Kengashi deputatlari umumiy sonining ko'pchilik ovozini ololmasa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mazkur lavozimlarga nomzodlarni partiya guruhlar bilan qo'shimcha maslahatlashuvlar o'tkazganidan so'ng bir oy ichida yana ikki marta taqdim etish huquqiga ega.

Tegishli xalq deputatlari Kengashi taqdim etilgan viloyat va Toshkent shahar hokimi nomzodlarini uch marta rad etgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti viloyat va Toshkent shahar hokimi vazifasini bajaruvchini tayinlash, tegishli xalq deputatlari Kengashini tarqatib yuborish huquqiga ega. Bunda xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlariga saylov tarqatib yuborish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch oy ichida o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlarining qaroriga muvofiq hokim nomzodi bo'yicha farmon qabul qiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Tuman, shahar hokimlari viloyat, Toshkent shahar hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

(2-moddaning yettinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-avgustdagi O'RQ-439-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 35-son, 914-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

Viloyat, tuman, shahar hokimi tegishli xalq deputatlari Kengashi deputati etib saylanishi mumkin.

Tuman, shahar hokimi lavozimiga nomzod tegishli xalq deputatlari Kengashida uning nomzodi ko'rib chiqilayotganda hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning istiqbolga mo'ljallangan dasturini taqdim etadi.

Tumanga bo'ysunadigan shahar hokimi tuman hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi hamda xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Viloyat hokimi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda shahar hokimini tuman (shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar bundan mustasno) hokimiga bo'ysundirish va yagona boshqaruv organlarini tuzish vakolatiga ega bo'lib, bu xususda qabul qilingan qaror keyinchalik xalq deputatlari viloyat Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq ayni bir viloyat, tuman, shahar hokimi etib tayinlanishi mumkin emas.

Hokimlarning vakolatlari muddati — besh yil.

(2-moddaning to'qqizinchi — o'n ikkinchi qismlari O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-son Qonuniga asosan to'qqizinchi — o'n to'rtinchi qismlar bilan almashtirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son — 2-moddaning o'n uchinchi qismidagi norma — viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari deputatlarining navbatdagi saylovi yakunlari bo'yicha amalga kiritiladi)

Oldingi tahrirga qarang.

3-modda. O'zbekiston Respublikasining mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi qonunchiligi

(3-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyati O'zbekiston Respublikasining [Konstitutsiyasi](#), ushbu Qonun va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi.

(3-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Qoraqalpog'iston Respublikasida xalq deputatlari tuman, shahar Kengashlari va tegishli hokimlarning faoliyati O'zbekiston Respublikasining [Konstitutsiyasi](#), ushbu Qonun va Qoraqalpog'iston Respublikasining qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

(3-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

4-modda. Hokimiyat vakillik organlari va hokimlarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan o'zaro munosabatlari

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi tegishli hududda o'zini o'zi boshqarishni rivojlantirishga ko'maklashadilar, o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyatini yo'naltirib turadilar.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Viloyat, tuman, shahar hokimi zarur bo'lgan hollarda o'z faoliyati to'g'risida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga hisobot taqdim etadi.

(4-modda O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 14-sentabrdagi O'RQ-446-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2017-y., 37-son, 978-modda)

5-modda. Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning O'zbekiston Respublikasi boshqa ma'muriy-hududiy tuzilmalari davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan o'zaro munosabatlari

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi berilgan vakolatlari doirasida umum manfaatni ifodalovchi tadbirlar o'tkazish, qo'shimcha korxonalar, xo'jalik tashkilotlari tuzish uchun, turli tarmoqlar va boshqaruv sohalarida faoliyatlarni uyg'unlashtirish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasining, O'zbekiston Respublikasi boshqa viloyatlari, shaharlari va tumanlarining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan shartnomalar asosida o'zaro munosabatlar o'rnatishga haqlidirlar.

6-modda. Xalq deputatlari Kengashi va hokim qabul qiladigan hujjatlar

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi qarorlar qabul qiladi.

Viloyat, tuman, shahar hokimi qarorlar qabul qiladi va farmoyishlar chiqaradi.

Xalq deputatlari Kengashining va hokimning hujjatlari Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlarini ishlab chiqish, kelishish va ro'yxatdan o'tkazishning yagona elektron tizimida (bundan buyon matnda Yagona elektron tizim deb yuritiladi) ishlab chiqiladi, kelishiladi va ro'yxatdan o'tkaziladi, bundan qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno.

Xalq deputatlari Kengashi va hokim qabul qilgan hujjatlar, bundan normativ-huquqiy tusga ega bo'lmagan hujjatlar mustasno, agar shu hujjatning o'zida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, Yagona elektron tizimda ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

Xalq deputatlari Kengashining va hokimning normativ-huquqiy tusdagi hujjatlari, agar hujjatlarning o'zida kechroq muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Xalq deputatlari Kengashining va hokimning Yagona elektron tizimda ro'yxatdan o'tkazilmagan hujjatlari tegishli ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin emas va huquqiy oqibatlarga olib kelmaydi, bundan qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno.

Xalq deputatlari Kengashi va hokim o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan hujjatlar viloyat, tuman, shahar hududida joylashgan barcha tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan ijro etilishi majburiydir.

(6-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

II BOB. MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI FAOLIYATINING IQTISODIY ASOSI

7-modda. Mahalliy davlat hokimiyati faoliyatining iqtisodiy asosini tashkil etuvchi mulk shakllari

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi faoliyatining iqtisodiy asosini ma'muriy-hududiy tuzilmalarning davlat mulki (kommunal mulk) hamda viloyat, tuman va shaharda mavjud bo'lib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga xizmat qiluvchi boshqa mulk tashkil etadi.

Oldingi tahrirga qarang.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi mutloq O'zbekiston Respublikasi mulkida bo'lgan davlat mulki obyektlariga nisbatan ishlab chiqarish va ijtimoiy obyektlarni samarali joylashtirish, tabiiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza etish, aholini ijtimoiy himoya qilish sohasida nazoratni amalga oshiradilar. Bunda viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat inspeksiyasining xulosasiga ko'ra yaroqsiz deb topilgan davlat ko'chmas mulk obyektlarini buzib tashlash to'g'risida qonunda belgilangan tartibda qarorlar qabul qilish huquqiga ega.

(7-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Viloyat, tuman, shahar mulkini, shuningdek viloyat, tuman va shaharga xo'jalik yuritish uchun berilgan davlat mulki obyektlarini boshqarish tartibi ushbu Qonun, O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik hujjatlari bilan yo'lga solinadi.

(7-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi, viloyat, tuman, shahar hokimi o'zlari idora qilayotgan hududdagi mulkchilikning turli shakliga asoslangan korxonalar uchun O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilmagan, tadbirkorlik va xo'jalik faoliyatini erkin yuritishga to'sqinlik qiladigan cheklovlarni joriy etishga haqli emaslar.

(7-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

8-modda. Viloyat, tuman, shahar mulki

Oldingi tahrirga qarang.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi davlat mulkini chegaralash natijasida o'ziga berilgan yoki qonunchilikka muvofiq o'zi sotib olgan obyektlarga nisbatan mulkdor vakolatlarini to'liq amalga oshiradi.

(8-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining mol-mulki, mahalliy budjetlarning mablag'lari va budjetdan tashqari jamg'armalarning mablag'lari viloyat, tuman, shahar mulkidir. Viloyat, tuman, shahar ahamiyatiga ega bo'lgan muhandislik infrastrukturasi obyektlari va boshqa obyektlar, korxonalar va birlashmalar, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, fan va madaniyat muassasalari, viloyat, tuman, shahar mablag'i hisobidan tashkil etilgan yoki sotib olingan, shuningdek ulushbay asoslarda tashkil etilgan yoki sotib olingan yoxud xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashiga boshqa manbalardan bepul berilgan qimmatli qog'ozlar va moliya aktivlari viloyat, tuman, shahar mulki bo'lishi mumkin.

(8-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 27-dekabrdagi O'RQ-361-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2013-y., 52-son, 686-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

8¹-modda. Mahalliy hokimiyat organlarining viloyat, tuman, shahar budjetdan tashqari jamg'armalari

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi budgetdan tashqari jamg'armalar tashkil etishi mumkin, ularga quyidagilar kiritiladi:

fuqarolar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning, bundan budget tashkilotlari mustasno, ixtiyoriy badallari va xayriyalari;

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa budgetdan tashqari mablag'lar.

(8¹-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Mahalliy hokimiyat organlari viloyat, tuman, shahar budgetdan tashqari jamg'armalarining mablag'lari shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turadi, olib qo'yilmaydi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi va hokimning qaroriga ko'ra sarflanadi.

(8¹-modda O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 27-dekabrda O'RQ-361-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — O'R QHT, 2013-y., 52-son, 686-modda)

9-modda. Viloyat, tuman, shahar mulki obyektlarini boshqarish

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Xalq deputatlari Kengashi, hokim viloyat, tuman, shahar mulki obyektlarini O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan doirada boshqaradi.

(9-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi hamda viloyat, tuman, shahar hokimi tegishli viloyat, tuman, shahar mulkida bo'lgan obyektlarni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda va doirada vaqtincha yoki doimiy egalik qilish va foydalanish uchun berishga haqlidir.

(9-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

10-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining yer munosabatlarini tartibga solishi

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Viloyat va Toshkent shahar hokimi faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda yer uchastkalarini doimiy foydalanishga berishga haqli.

(10-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

Qonunda nazarda tutilgan hollarda, tuman, shahar hokimi jismoniy va yuridik shaxslar bilan yer uchastkalarini ijaraga berish shartnomasini tuzadi.

Qonunda nazarda tutilgan hollarda, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari yer uchastkasini yoki uning bir qismini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish to'g'risida qarorlar qabul qiladi.

Xalq deputatlari Kengashi, hokim qonunchilikka muvofiq yer munosabatlari sohasidagi boshqa masalalarni ham hal qiladi.

(10-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 6-iyundagi O'RQ-775-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

(III bob O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 27-dekabrda O'RQ-361-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — O'R QHT, 2013-y., 52-son, 686-modda)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

IV BOB. MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI VAKILLIK ORGANLARI

(IV bobning nomi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

16-modda. Xalq deputatlari Kengashini saylash

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksiga muvofiq viloyat, tuman, shahar aholisi tomonidan saylanadigan xalq deputatlaridan

iborat bo'ladi.

(16-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 18-dekabrda O'RQ-883-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.12.2023-y., 03/23/883/0949-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Xalq deputatlari Kengashlarining vakolatlari muddati — besh yil.

(16-modda O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki ayrim joylarida joriy etilgan favqulodda holat amal qilishining butun muddati ichida xalq deputatlari Kengashlariga saylovlar o'tkazilmaydi.

(16-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

Oldingi tahrirga qarang.

16¹-modda. Xalq deputatlari Kengashining raisi

Xalq deputatlari Kengashiga uning deputatlari orasidan saylanadigan rais boshchilik qiladi.

Viloyat, tuman, shahar hokimi lavozimini egallab turgan shaxs bir vaqtning o'zida xalq deputatlari Kengashining raisi lavozimini egallashi mumkin emas.

Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq ayni bir viloyat, tuman, shahar xalq deputatlari Kengashining raisi etib saylanishi mumkin emas.

Xalq deputatlari Kengashi raisi Kengashning vakolatlari muddatiga saylanadi.

Xalq deputatlari Kengashi raisi o'z vazifalarini bajarish davrida siyosiy partiyaga a'zolikni to'xtatib turadi, shuningdek doimiy va boshqa komissiyalar, partiya guruhlarini tarkibiga kirishi mumkin emas.

16²-modda. Xalq deputatlari Kengashi raisining vakolatlari

Xalq deputatlari Kengashi raisi:

xalq deputatlari Kengashi sessiyasiga ko'rib chiqish uchun kiritiladigan masalalarni tayyorlashga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi;

xalq deputatlari Kengashi sessiyasiga raislik qiladi va Kengash sessiyasining ishini tashkil etadi;

xalq deputatlari Kengashi Kotibiyati mudiri va xodimlarini lavozimga tayinlaydi hamda lavozimidan ozod qiladi;

Kengash Kotibiyatiga xalq deputatlari Kengashi ishini tashkil etish bo'yicha topshiriqlar beradi, Kotibiyat xodimlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

xalq deputatlari Kengashining qarorlarini va Kengash sessiyasi bayonnomalarini imzolaydi, shuningdek ularning ijrosi ustidan nazoratni tashkil etadi;

xalq deputatlari Kengashining sessiyasini, shu jumladan navbatdan tashqari sessiyasini chaqirish to'g'risida qaror qabul qiladi;

fuqarolarni qabul qilishni tashkil etadi, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqadi;

xalq deputatlari Kengashining doimiy va muvaqqat komissiyalari ishini muvofiqlashtirib boradi;

xalq deputatlari Kengashi muhokamasiga kiritilgan masalalarni ko'rib chiqish uchun davlat organlari va tashkilotlarining mutaxassislari hamda ekspertlarini jalb etadi;

deputatlarga o'z vakolatlarini amalga oshirishda ko'maklashadi;

xalq deputatlari Kengashi faoliyatining ochiqligi va oshkoraligini ta'minlash choralari ko'radi;

xalq deputatlari Kengashi faoliyatining tashkiliy, axborot, moddiy-texnika ta'minotini tashkil etadi;

ushbu Qonunda va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan vakolatlarni amalga oshiradi.

16³-modda. Xalq deputatlari Kengashi raisini saylash

Xalq deputatlari Kengashining birinchi sessiyasi xalq deputatlari Kengashi raisini saylashdan boshlanadi.

Xalq deputatlari Kengashi raisini saylash uchun deputatlar orasidan xalq deputatlari Kengashiga saylovda ishtirok etgan har bir siyosiy partiya deputatlaridan iborat siyosiy partiyalar vakillari guruhi tashkil etiladi. Siyosiy partiyalar vakillari guruhining tarkibi to'g'risidagi qaror deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Siyosiy partiyalar vakillari guruhining majlisida xalq deputatlari Kengashiga saylovda eng ko'p deputatlik o'rinlarini olgan siyosiy partiyaning vakili raislik qiladi.

Xalq deputatlari Kengashi raisi lavozimiga nomzodlar siyosiy partiyalar vakillari guruhining tavsiyasi asosida deputatlar orasidan shakllantiriladi.

Ayni bir shaxs bir vaqtning o'zida boshqa viloyat, tuman, shahar xalq deputatlari Kengashining raisi etib saylanishi mumkin emas.

Xalq deputatlari Kengashi raisi lavozimiga nomzod, agar u ovoz berish natijasida Kengash deputatlari umumiy sonining ko'pchilik ovozini olgan bo'lsa, saylangan deb hisoblanadi.

Xalq deputatlari Kengashi raisi saylanganligi to'g'risida qaror qabul qilinadi, uni xalq deputatlari Kengashi sessiyasida raislik qiluvchi imzolaydi.

16⁴-modda. Xalq deputatlari Kengashi raisini muddatidan ilgari lavozimidan ozod qilish

Xalq deputatlari Kengashi raisi ovoz berish orqali Kengash deputatlari umumiy sonining uchdan ikki qismidan ko'prog'ining ovozi bilan qabul qilingan Kengash qaroriga binoan muddatidan ilgari lavozimidan ozod qilinishi mumkin.

Xalq deputatlari Kengashi raisini muddatidan ilgari lavozimidan ozod qilish to'g'risidagi masala Kengash deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismidan iborat deputatlar guruhining taklifiga binoan Kengash tomonidan ko'rib chiqiladi.

Xalq deputatlari Kengashi raisini muddatidan ilgari lavozimidan ozod qilish to'g'risidagi masala ko'rib chiqilayotganda sessiyada Kengashning doimiy komissiyalari raislaridan biri raislik qiladi.

Xalq deputatlari Kengashi raisini muddatidan ilgari lavozimidan ozod qilish to'g'risida qaror qabul qilinadi, qaror sessiyada raislik qiluvchi tomonidan imzolanadi.

(16¹ — 16⁴-moddalar O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son — viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari deputatlarining navbatdagi saylovi yakunlari bo'yicha amalga kiritiladi)

17-modda. Xalq deputatlari Kengashining sessiyalari

Oldingi tahrirga qarang.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi faoliyatining tashkiliy shakli uning sessiyalaridir. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining sessiyalari tegishli Kengashning faoliyatni jamoatchilik asosida amalga oshiradigan raisi, u yo'qligida esa tegishli Kengashga saylovda eng ko'p deputatlik o'rinlarini olgan siyosiy partiyadan ilgari surilgan deputatlar tomonidan tashkil etilgan partiya guruhi rahbari tomonidan, zaruratga qarab, har chorakda kamida bir marta chaqiriladi. Sessiya xalq deputatlari tegishli Kengashi deputatlari kamida uchdan ikki qismining tashabbusiga yoki hokimning taklifiga binoan ham chaqirilishi mumkin. Kengash sessiyasini chaqirish to'g'risidagi qarordan deputatlar sessiya ochilishidan kamida uch kun oldin xabardor qilinadi.

Yangi saylangan xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining birinchi sessiyasi hokim tomonidan saylovdan keyin kechi bilan uch haftalik muddat ichida chaqiriladi. Kengashning birinchi sessiyasini tegishli hududiy, tuman, shahar saylov komissiyasi raisi ochib beradi hamda u Kengash raisi saylanguniga qadar sessiyada raislik qiladi.

Xalq deputatlari Kengashi sessiyalarida rais, u yo'qligida esa tegishli Kengashga saylovda eng ko'p deputatlik o'rinlarini olgan siyosiy partiyadan ilgari surilgan deputatlar tomonidan tashkil etilgan partiya guruhi rahbari raislik qiladi. Agar bir nechta siyosiy partiya teng miqdordagi eng ko'p deputatlik o'rinlarini egallasa, ularning o'zaro kelishuviga ko'ra tegishli partiyaning rahbari raislik qiladi.

Yangi saylangan xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining birinchi sessiyasi o'tkazilgan kundan e'tiboran bir oydan kechiktirmay Kengashning organlari tuziladi.

(17-modda birinchi va ikkinchi qismlari O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuniga asosan birinchi — to'rtinchi qismlar bilan almashtirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son — viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari deputatlarining navbatdagi saylovi yakunlari bo'yicha amalga kiritiladi)

Xalq deputatlari Kengashining har bir sessiyasini o'tkazish davrida deputatlar orasidan sessiya kotibi yoki kotibiyati saylanadi.

Xalq deputatlari Kengashining sessiyasi, basharti unda jami deputatlarning kamida uchdan ikki qismi ishtirok etsa, vakolatli hisoblanadi.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi sessiyasida muhokama qilinayotgan masalalar bo'yicha ochiq yoki yashirin ovoz berish orqali, deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qonunda to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilgan masalalar bo'yicha esa deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan ko'prog'ining ovozi bilan qaror qabul qilinadi.

(17-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-iyundagi O'RQ-782-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.06.2022-y., 03/22/782/0576-son — 2022-yil 1-oktabrdan kuchga kiradi)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Elektron ovoz berish tizimlari o'rnatilgan zallarda ochiq yoki yashirin ovoz berish elektron ovoz berish tizimidan foydalanilgan holda o'tkaziladi.

Deputat o'zining ovoz berish huquqini shaxsan amalga oshiradi.

(17-modda O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuniga asosan sakkizinchi va to'qqizinchi qismlar bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son — viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari deputatlarining navbatdagi saylovi yakunlari bo'yicha amalga kiritiladi)

18-modda. Xalq deputatlari Kengashining Ish tartibi

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Xalq deputatlari Kengashi sessiyalarini chaqirish va o'tkazish, sessiya muhokamasiga masalalar kiritish va ularni ko'rib chiqish, xalq deputatlari Kengashi organlarini tashkil etish va saylash, ularning faoliyati to'g'risidagi hisobotlarni eshitish, Kengash so'rovini yuborish to'g'risidagi taklifni ko'rib chiqish, Kengash tekshiruvini o'tkazish, deputatlar so'rovlarini yuborish, qarorlar loyihalarini ko'rib chiqish, ovoz berish, qarorlarni o'qib eshittirish, sessiyaga taklif etilgan shaxslar sonini aniqlash tartibi, shuningdek deputatlarning mas'uliyati va sessiya ishini tashkil etishga doir boshqa masalalar xalq deputatlari Kengashining reglamentiga muvofiq belgilanadi.

(18-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

19-modda. Xalq deputatlari Kengashining doimiy va muvaqqat komissiyalari

Sessiya muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tayyorlash, xalq deputatlari Kengashi qarorlarini va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarini ro'yobga chiqarish uchun ko'maklashish, shuningdek o'z vakolatlari doirasida nazoratni amalga oshirish uchun xalq deputatlari Kengashi o'z vakolatlari muddatiga doimiy va muvaqqat komissiyalar tuzadi.

Xalq deputatlari Kengashlarida, qoida tariqasida, quyidagi doimiy komissiyalar tuziladi:

mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo'yicha;

korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash va huquqiy masalalar bo'yicha;

ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo'yicha;

agrar, qurilish, kommunal sohalar, ekologiya, sanoat va transport masalalari bo'yicha;

reglament va deputatlik odob-axloqi masalalari bo'yicha.

Xalq deputatlari Kengashida muvaqqat komissiyalar ham tuzilishi mumkin.

Komissiyalar to'g'risidagi nizomlar tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

(19-modda O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

Oldingi tahrirga qarang.

19¹-modda. Xalq deputatlari Kengashi doimiy va muvaqqat komissiyalarining vakolatlari

Xalq deputatlari Kengashining doimiy va muvaqqat komissiyalari:

o'z tashabbusiga ko'ra yoki Kengashning topshirig'iga binoan Kengash qarorlarining loyihalarini ishlab chiqadi;

faoliyat yo'nalishi doirasida hududiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

xalq deputatlari Kengashi qarorlari loyihalarini dastlabki tarzda ko'rib chiqadi va ularni Kengash sessiyasida ko'rib chiqish uchun tayyorlaydi;

xalq deputatlari Kengashi qarorlarining loyihalari yuzasidan xulosalar beradi;

viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budjetlari, shuningdek tumanlar va shaharlar budjetlari loyihalari yuzasidan xulosalar hamda takliflar beradi;

xalq deputatlari Kengashining tavsiyasiga ko'ra budjet mablag'larining maqsadli sarflanishi va ulardan samarali foydalanilishi holatini o'rganadi;

ishchi guruhlar tuzadi, ularning tarkibiga davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining, ilmiy muassasalarning vakillarini, mutaxassislar va olimlarni jalb etadi;

tegishli hududdagi davlat organlari va tashkilotlaridan, mansabdor shaxslardan ma'lumotlarni va ekspert xulosalarini, shuningdek boshqa axborotni talab qilib oladi;

tegishli hududda qonun hujjatlarining va xalq deputatlari Kengashi qarorlarining davlat organlari tomonidan ijro etilish holatini, huquqning qo'llanilish amaliyotini joylarga chiqqan holda o'rganadi;

normativ-huquqiy hujjatlarni, xalq deputatlari Kengashi qarorlarini targ'ib etish, ularning mohiyati va ahamiyatini tushuntirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshiradi.

Doimiy va muvaqqat komissiyalar qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

(19¹-modda O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

Oldingi tahrirga qarang.

20-modda. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi kotibiyati

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi faoliyatiga tashkiliy, texnikaviy va boshqa jihatlardan xizmat ko'rsatish tegishli xalq deputatlari Kengashi kotibiyati tomonidan ta'minlanadi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi kotibiyati yuridik shaxs bo'lib, uning faoliyati tegishli mahalliy budjet hisobidan moliyalashtiriladi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi kotibiyatining tuzilmasi, nizomi, shtatlari, uning xodimlari mehnatiga haq to'lash miqdori va moddiy-texnika ta'minoti, shuningdek ularni saqlash xarajatlari tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi kotibiyati xodimlarining mehnatga oid munosabatlari xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining vakolatlari muddatiga bog'liq bo'lmaydi, kotibiyat mudiri bundan mustasno.

Oldingi tahrirga qarang.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi kotibiyatining mudiri tegishli xalq deputatlari Kengashi deputatlari orasidan Kengash raisi tomonidan tayinlanadi va doimiy asosda faoliyat yuritadi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi kotibiyatining mudiri o'z vakolatlari davrida ilmiy, ijodiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin emas.

(20-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuniga beshinchi va oltinchi qismlar bilan almashtirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi kotibiyati O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi va o'z nomi tushirilgan muhriga hamda blankalariga ega bo'ladi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi kotibiyatining namunaviy tuzilmasi va namunaviy nizomi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

(20-modda O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 14-sentabrdagi O'RQ-636-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.09.2020-y., 03/20/636/1276-son)

Oldingi tahrirga qarang.

20¹-modda. Xalq deputatlari Kengashlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorligi

Xalq deputatlari Kengashlari nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlikni amalga oshiradi, qonunchilik hujjatlariga muvofiq ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi.

Xalq deputatlari Kengashlari hududiy dasturlarning, Kengash qarorlarining loyihalarini ishlab chiqish masalalari yuzasidan, shuningdek ularning ijrosi ustidan nazorat borasida nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlikni amalga oshiradi.

(20¹-modda O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

Oldingi tahrirga qarang.

V BOB. MAHALLIY IJRO ETUVCHI HOKIMIYAT ORGANLARI. HOKIMLARNING VAKOLATLARI

(V bobning nomi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

Oldingi tahrirga qarang.

21-modda. Mahalliy ijro etuvchi hokimiyatning rahbariyati

(21-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Tegishli hududdagi ijro etuvchi hokimiyatga viloyat, tuman va shahar hokimi boshchilik qiladi.

Viloyat, tuman va shahar hokimi o'z vakolatlarini yakkaboshchilik asosida amalga oshiradi hamda o'zi rahbarlik qilayotgan organlarning qarorlari va harakatlari uchun shaxsan javobgar bo'ladi.

Hokim O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadigan miqdorda birinchi o'rinbosarga va o'rinbosarlarga ega bo'ladi.

(21-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuniga birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlar bilan almashtirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

Oldingi tahrirga qarang.

(21-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 25-dekabrdagi 729-I-sonli Qonuniga asosan chiqarib tashlangan — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1999-y., 1-son, 20-modda)

Viloyat va Toshkent shahar hokimining birinchi o'rinbosari hamda o'rinbosarlari hokim tomonidan O'zbekiston Respublikasining Prezidenti bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi, bu xususda qabul qilingan qaror tegishli xalq deputatlari Kengashining tasdig'iga kiritiladi.

Tuman, shahar hokimining o'rinbosarlari tegishli hokim tomonidan yuqori turuvchi hokim bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi, bu xususda qabul qilingan qaror tuman, shahar xalq deputatlari Kengashining tasdig'iga kiritiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Tumanga bo'ysunuvchi shahar hokimining o'rinbosarlari tegishli hokim tomonidan yuqori turuvchi hokim bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

(21-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-avgustdagi O'RQ-439-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 35-son, 914-modda)

Hokimning o'rinbosarlari hokim tomonidan belgilangan vazifalar taqsimotiga muvofiq ish bajaradilar. Hokim yo'qligida yoki u zimmasidagi vazifalarni bajarish imkoniyatiga ega bo'lmagan taqdirda uning vakolatlarini birinchi o'rinbosar yoki hokimning topshirig'iga binoan uning o'rinbosarlaridan biri bajaradi.

Hokim, uning o'rinbosarlari, hokimlikning boshqa xodimlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining mansabdor shaxslari boshqa haq to'lanadigan lavozimni egallashlari mumkin emas.

Oldingi tahrirga qarang.

21¹-modda. Hokimlarning vakolatlari

Viloyat, tuman, shahar hokimi:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarini, Oliy Majlis palatalarining qarorlarini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari hamda farmoyishlarini, Vazirlar Mahkamasining, yuqori turuvchi hokimlarning va tegishli xalq deputatlari Kengashlarining qarorlarini ijro etadi;

hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik jihatdan rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

jamoat tartibiga rioya etilishi va jinoyatchilikka qarshi kurashish, fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash, ularning huquqlarini himoya qilish va sog'lig'ini muhofaza qilish bilan bog'liq chora-tadbirlar ko'radi, tabiiy ofatlar, epidemiyalar va boshqa favqulodda hollarda ishlarni tashkil etadi;

viloyatlarning viloyat budjetlaridan va Toshkent shahrining shahar budjetidan, tumanlar hamda shaharlar budjetlaridan hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan budjet mablag'larining cheklangan miqdorlarini budjet so'rovini tuzish uchun ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi;

viloyat, tuman, shaharni iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini, viloyat va Toshkent shahar mahalliy budjetining, tuman va shahar budjetining tegishli loyihasini, shuningdek uning ijrosi to'g'risidagi hisobotni xalq deputatlari Kengashiga taqdim etadi;

xalq deputatlari Kengashlari sessiyalariga ko'rib chiqish uchun masalalar kiritadi, zarur hollarda Kengash sessiyasini chaqirish to'g'risida Kengashga taklif kiritadi;

xalq deputatlari Kengashlarining sessiyalarida ishtirok etadi;

tegishli xalq deputatlari Kengashiga viloyat, tuman, shahar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan hisobotlar taqdim etadi;

o'z o'rinbosarlarini lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod etish to'g'risidagi qarorlarni xalq deputatlari Kengashining tasdig'iga taqdim etadi;

hokimlik apparati bo'linmalari rahbarlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi;

quyi turuvchi hokimlarning qarorlarini (bundan xususiy mulk huquqining, shuningdek yer uchastkasiga bo'lgan huquqning yuzaga kelishi uchun asos bo'lgan qarorlar mustasno), agar ular O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, qonunlariga va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hujjatlariga, shuningdek yuqori turuvchi xalq deputatlari Kengashining va hokimning qarorlariga zid bo'lsa, bekor qiladi va xalq deputatlari Kengashiga quyi turuvchi xalq deputatlari Kengashlarining hujjatlarini bekor qilish to'g'risida taqdimnoma kiritadi;

ijro etuvchi hokimiyat organlari tarkibiy bo'linmalarining ishini nazorat qiladi;

xalq deputatlari Kengashining qonunchilikka zid qarorlarini qayta ko'rib chiqish to'g'risida tegishli xalq deputatlari Kengashiga taqdimnoma kiritadi, bundan xususiy mulk huquqining, shuningdek yer uchastkasiga bo'lgan huquqning vujudga kelishi uchun asos bo'lgan qarorlar mustasno;

tegishli xalq deputatlari Kengashining qonunchilikka zid qarorlarini bekor qilish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga yoki sudga murojaat qiladi;

xalq deputatlari Kengashining va hokimning hujjatlarini bajarmaganligi uchun mansabdor shaxslarni intizomiy javobgarlikka tortish to'g'risida qonunda belgilangan tartibda taqdimnoma kiritadi;

davlat mukofotlari bilan taqdirlash to'g'risidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqadi va takliflar kiritadi;

respublikada va xorijda viloyat, tuman hamda shaharning rasmiy vakili sifatida ish yuritadi;

fuqarolarni qabul qilishni tashkil etadi, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqadi.

Viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga:

navbatdagi yil uchun viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining loyihalarini ko'rib chiqish hamda tegishli xulosa taqdim etish uchun;

o'tgan moliya yili uchun viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotni tashqi auditdan o'tkazish hamda baholash uchun yuboradi.

Hokim qonunchilikda o'z vakolatlari jumlasiga kiritilgan rejalashtirish, budjet, moliya, hisobga olish, viloyat, tuman, shahar mulkini boshqarish hamda mulkchilikning turli shaklidagi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, qishloq xo'jaligi, yerdan va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish, tabiatni muhofaza qilish, qurilish, transport, yo'l xo'jaligi va aloqa, aholiga kommunal, savdo va ijtimoiy-madaniy xizmat ko'rsatish, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, qonuniylikni, huquq-tartibotni hamda xavfsizlikni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish kabi boshqa masalalarni ham hal etadi.

(21¹-modda O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

Oldingi tahrirga qarang.

22-modda. Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining tuzilmasi va shtatlari

Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari (hokimliklar) boshqarmalar, bo'limlar va boshqa bo'linmalardan iborat bo'lib, ularning tuzilmasi, ularni tashkil etish tartibi va faoliyati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.

Viloyatlar va Toshkent shahar ijro etuvchi hokimiyat organlarining tuzilmasi va shtatlari hokim tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda tegishli xalq deputatlari Kengashi tasdiqlagan budjet doirasida belgilanadi va o'zgartiriladi.

Tuman, shahar ijro etuvchi hokimiyat organlarining tuzilmasi va shtatlari hokim tomonidan yuqori turuvchi hokim bilan kelishilgan holda tegishli xalq deputatlari Kengashi tasdiqlagan budjet doirasida belgilanadi va o'zgartiriladi.

Viloyat, tuman, shahar hokimliklari apparatining tuzilmasi va shtatlari tegishli hokim tomonidan viloyat, tuman, shahar xalq deputatlari Kengashi tasdiqlagan budjet doirasida belgilanadi va o'zgartiriladi.

Viloyat va Toshkent shahar hokimligi apparatining namunaviy tuzilmasi va shtatlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan, tuman va shahar hokimligi apparatining namunaviy tuzilmasi va shtatlari esa yuqori turuvchi hokim tomonidan belgilab qo'yiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasida tuman va shahar hokimligi apparatining namunaviy tuzilmasi va shtatlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi tomonidan belgilanadi.

(22-modda O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

Oldingi tahrirga qarang.

23-modda. Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tarkibiy bo'linmalarining rahbarlarini lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod etish

Agar qonunchilikda lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilishning boshqacha tartibi belgilanmagan bo'lsa, ijro etuvchi hokimiyat tarkibiy bo'linmalarining rahbarlari respublika ijro etuvchi hokimiyatining yuqori turuvchi organlari bilan kelishilgan holda hokim tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Agar qonunchilikda lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilishning boshqacha tartibi belgilanmagan bo'lsa, tumanga bo'ysunadigan shahar ijro etuvchi hokimiyat tarkibiy bo'linmalarining rahbarlari respublika ijro etuvchi hokimiyatining yuqori turuvchi organlari bilan kelishilgan holda tegishli hokim tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

(23-modda O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

VI BOB. XALQ DEPUTATLARI KENGASHLARINING VAKOLATLARI

(VI bobning nomi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

24-modda. Xalq deputatlari Kengashining vakolatlari

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining asosiy vakolatlariga:

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarini, tuman, shaharning bosh rejasini hamda uni qurish qoidalarini tasdiqlash;

(24-modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budjetlarini, shuningdek tumanlar va shaharlar budjetlarini tegishincha viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga binoan ko'rib chiqish hamda qabul qilish, ularning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

(24-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

viloyatlarning viloyat budjetlari, Toshkent shahrining shahar budjeti hamda tumanlar va shaharlar budjetlari daromadlarining prognozlarini ma'lumot uchun qabul qilish;

viloyatlarning viloyat budjetlariga va Toshkent shahrining shahar budjetiga, tumanlar va shaharlar budjetlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi qarorlarni tasdiqlash;

tegishli budjetlardan moliyalashtiriladigan hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilarning budjet mablag'laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalar to'g'risidagi hisobotlarini eshitish;

(24-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-dekabrdagi O'RQ-660-sonli Qonuniga asosan to'rtinchi, beshinchi va oltinchi xatboshilar bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 03/20/660/1682-son)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budjetlarining, shuningdek tumanlar va shaharlar budjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tegishincha viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga binoan ko'rib chiqish hamda tasdiqlash;

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida belgilash;

(24-modda birinchi qismining sakkizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

hokimni va uning o'rinbosarlarini lavozimga tasdiqlash, hokimni va uning o'rinbosarlarini lavozimdan ozod etish, ularning faoliyatiga doir hisobotlarini, shuningdek hokimlarning viloyat, tuman, shahar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan hisobotlarini tinglash;

(24-moddaning birinchi qismi oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 16-apreldagi O'RQ-367-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2014-y., 16-son, 177-modda)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Xalq qabulxonalarining tegishli hududdagi davlat organlari va tashkilotlar rahbarlari faoliyati hamda murojaatlar bilan ishlash holati to'g'risidagi axborotini har chorakda eshitish;

yoshlar muammolarini o'rganish, ularni hal etishga ko'maklashish, yosh avlodning iste'dodi va qobiliyatini rivojlantirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish choralarini ko'rishga qaratilgan ishlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi hududiy rahbarlarining hisobotlarini har olti oyda eshitish;

(24-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuniga asosan o'ninchi va o'n birinchi xatboshilar bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollarda hokim qarorlarini tasdiqlash;

Oldingi tahrirga qarang.

xalq deputatlari Kengashining Ish tartibini, xalq deputatlari Kengashi doimiy va muvaqqat komissiyalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash, ularga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish;

(24-modda birinchi qismining o'n uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

xalq deputatlari Kengashining doimiy va muvaqqat komissiyalarini, boshqa organlarini tuzish, saylash va tugatish, ularning tarkibini o'zgartirish, ular ishiga doir hisobotlarni tinglash;

Oldingi tahrirga qarang.

qonunchilikda belgilangan hollarda va tartibda xalq deputatlarining vakolatlarini e'tirof etish va muddatidan oldin to'xtatish, ularni javobgarlikka tortish uchun rozilik berish;

(24-modda birinchi qismining o'n uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

zarurat bo'lganda ijro etuvchi hokimiyat bo'limlari, boshqarmalari, boshqa tarkibiy bo'linmalari rahbarlarining hisobotlarini, shu jumladan qonunlarga rioya etilishi, tegishli xalq deputatlari Kengashlari qarorlarining va doimiy komissiyalar tavsiyalarining bajarilishi yuzasidan hisobotlarini eshitish;

(24-modda birinchi qismining o'n oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Oldingi tahrirga qarang.

tegishli prokurorlarning faoliyati to'g'risidagi axborotini har yili eshitish;

(24-modda birinchi qismining o'n yettinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hududiy bo'linmalari rahbarlarining hisobotlarini eshitish;

Oldingi tahrirga qarang.

tegishincha sog'liqni saqlashni boshqarish hududiy organlari, tuman (shahar) tibbiyot birlashmalari rahbarlarining hisobotlarini eshitish;

(24-modda birinchi qismining o'n yettinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 4-oktabrdagi O'RQ-870-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.10.2023-y., 03/23/870/0753-son)

Oldingi tahrirga qarang.

tegishincha hududiy adliya boshqarmalari va tumanlar (shaharlar) adliya bo'limlari boshliqlarining axborotini eshitish;

(24-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 8-yanvardagi O'RQ-512-sonli Qonuniga asosan o'n beshinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.01.2019-y., 03/19/512/2435-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Kengash so'rovini yuborish to'g'risidagi taklifni ko'rib chiqish, Kengash tekshiruvini o'tkazish, deputat so'rovlarini yuborish va ular yuzasidan qarorlar qabul qilish;

hokimning xalq deputatlari Kengashining qonunchilikka zid qarorlarini qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi taqdimnomasiga asosan Kengash qarorini o'zgartirish yoki bekor qilish;

hokimning va quyi Kengashning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq bo'lmagan qarorlarini bekor qilish;

hokimning taqdimiga binoan hokimlikning tuzilmasini, shtatlarini va uning xodimlari mehnatiga haq to'lash fondini tasdiqlash kiradi.

(24-moddaning yigirma birinchi, yigirma ikkinchi va yigirma uchinchi xatboshilari O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuniga asosan yigirma birinchi — yigirma to'rtinchi xatboshilar bilan almashtirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari:

tegishli viloyatlarning viloyat budjetlaridan hamda Toshkent shahrining shahar budjetidan tumanlar va shaharlar budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlarning cheklangan miqdorlarini ko'rib chiqadi hamda tasdiqlaydi;

jismoniy va yuridik shaxslarga tegishincha meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish, doimiy egalik qilish, doimiy foydalanish, muddatli (vaqtincha) foydalanish yoki ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkalarini yoki ularning qismlarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish va olib qo'yilgan yer uchastkalarida joylashgan ko'chmas mulk obyektlarini qonunda belgilangan hollarda va tartibda buzib tashlash to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) mintaqaviy vakilining inson huquqlari, erkinliklarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish holati to'g'risidagi ma'ruzasini har yili eshitadi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani) mintaqaviy vakilining tegishli hududda bola huquqlari, erkinliklarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish holati to'g'risidagi ma'ruzasini har yili eshitadi;

tegishli hududda mahalliy ahamiyatga molik monumental yodgorliklarni qonunchilikda belgilangan tartibda o'rnatish va buzish (ko'chirish) to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi o'z vakolatlari jumlasiga kiritilgan boshqa tashkiliy masalalarni va O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq nazorat qilishga doir masalalarni hal etadi.

(24-moddaning ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi qismlari O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan almashtirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

Oldingi tahrirga qarang.

(25-modda O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

Oldingi tahrirga qarang.

25¹-modda. Hokimning viloyat, tuman, shahar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan hisobotini xalq deputatlari Kengashi tomonidan eshitish

Viloyat, tuman, shahar hokimi har yili tegishli xalq deputatlari Kengashiga viloyat, tuman, shahar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan hisobot taqdim etadi.

Oldingi tahrirga qarang.

Viloyat, tuman, shahar hokimining hisoboti tegishli xalq deputatlari Kengashining viloyat, tuman, shaharning o'tgan yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yakunlari hamda joriy yilga mo'ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturining eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan sessiyasida eshitiladi. Mazkur sessiya viloyatlarda va Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli majlisi o'tkazilganidan keyin o'n kundan kechiktirmay, tumanlar va shaharlarda esa viloyatlarda va Toshkent shahrida tegishli majlislar o'tkazilganidan keyin o'n kundan kechiktirmay o'tkaziladi.

(25¹-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

Viloyat va Toshkent shahar hokimining hisobotini eshitishga tegishli viloyatlar va Toshkent shahridan saylangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zolari, Qonunchilik palatasi deputatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a'zolari, davlat boshqaruvi organlari rahbarlari, tumanlar va shaharlar hokimlari, viloyat va Toshkent shahar ijroiya hokimiyati organlari tarkibiy bo'linmalarining rahbarlari taklif etiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Tuman va shahar hokimining hisobotini eshitishga tegishli saylov okruglaridan saylangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zolari, Qonunchilik palatasi deputatlari va xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlari deputatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, davlat boshqaruvi organlarining vakillari, viloyat, Toshkent shahar hokimi yoki uning o'rinbosarlari, tuman va shahar ijroiya hokimiyati organlari tarkibiy bo'linmalarining rahbarlari taklif etiladi.

(25¹-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-avgustdagi O'RQ-439-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 35-son, 914-modda)

Viloyat, tuman, shahar hokimining hisobotini eshitishga tegishli hududda joylashgan boshqa davlat organlarining, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, korxonalarining, muassasalarning, tashkilotlarning, shu jumladan nodavlat notijorat tashkilotlarining, siyosiy partiyalarning, ommaviy axborot vositalarining vakillari va boshqa shaxslar taklif etilishi mumkin.

Viloyat va Toshkent shahar hokimining hisobotini muhokama qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisida berilgan baholar va belgilangan vazifalar hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Tuman va shahar hokimining hisobotini muhokama qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlislarida, shuningdek xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlarining sessiyalarida berilgan baholar hamda belgilangan vazifalar hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

(25¹-moddaning yettinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

Viloyat, tuman, shahar hokimining hisobotini muhokama qilish yakunlari bo'yicha tegishli xalq deputatlari Kengashining qarori qabul qilinib, unda tegishli hokim va mahalliy ijroiya hokimiyati organlari ishining samaradorligiga kompleks baho beriladi, ularning ishini takomillashtirishga doir tavsiyalar va takliflar, shuningdek qaror amalga oshirilishining borishi ustidan nazoratni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar nazarda tutiladi. Mazkur qaror va hokimning hisoboti rasmiy nashrlarda hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining veb-saytlarida e'lon qilinishi shart.

(25¹-modda O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 9-iyundagi O'RQ-388-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — O'R QHT, 2015-y., 23-son, 301-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

25²-modda. Xalq deputatlari Kengashi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hududiy bo'linmalari rahbarlarining hisobotlarini eshitish

Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalarining, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalarining boshliqlari huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning profilaktikasi holati to'g'risida har chorakda, jamoat xavfsizligi to'g'risida esa har olti oyda tegishincha xalq deputatlari Toshkent shahar va viloyatlar Kengashlariga hisobot taqdim etadi.

Tuman (shahar) ichki ishlar boshqarmalarining (bo'limlarining) boshliqlari huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning profilaktikasi holati to'g'risida, shuningdek jamoat xavfsizligi to'g'risida har chorakda xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga hisobot taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hududiy bo'linmalari rahbarlarining hisobotlarini eshitishga tegishli hududda joylashgan boshqa davlat organlarining, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, tashkilotlarning, shu jumladan nodavlat notijorat tashkilotlarining, siyosiy partiyalarning, ommaviy axborot vositalarining vakillari va boshqa shaxslar taklif etilishi mumkin.

Yuklatilgan vazifalarning bajarilishi yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar va ishlarning natijalari O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hududiy bo'linmalari rahbarlarining hisobotlarini eshitish chog'ida tanqidiy jihatdan muhokama qilinadi, ularning faoliyati samaradorligiga shaxsan baho beriladi, shuningdek egallab turgan lavozimiga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi to'g'risida tavsiyalar qabul qilinadi.

(25²-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

Oldingi tahrirga qarang.

25³-modda. Xalq deputatlari Kengashi tomonidan tegishincha hududiy adliya boshqarmalari va tumanlar (shaharlar) adliya bo'limlari boshliqlarining axborotini eshitish

Oldingi tahrirga qarang.

Hududiy adliya boshqarmalarining boshliqlari har yili tegishincha xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlariga joylardagi norma ijodkorligi faoliyati hamda huquqni qo'llash amaliyoti, huquqiy targ'ibot va ma'rifatning holati to'g'risida axborot taqdim etadi.

(25³-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

Hududiy adliya boshqarmasi boshlig'ining axborotini eshitish yakunlari bo'yicha tegishli xalq deputatlari Kengashining qarori qabul qilinib, qaror O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga yuboriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Tumanlar (shaharlar) adliya bo'limlarining boshliqlari har olti oyda xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga tuman (shahar) darajasidagi davlat organlari va tashkilotlarining norma ijodkorligi faoliyati hamda huquqni qo'llash amaliyotining holati to'g'risida axborot taqdim etadi.

(25³-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

Tuman (shahar) adliya bo'limi boshlig'ining axborotini eshitish yakunlari bo'yicha tegishli xalq deputatlari Kengashining qarori qabul qilinib, qaror hududiy adliya boshqarmasiga yuboriladi.

(25³-modda O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 8-yanvardagi O'RQ-512-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.01.2019-y., 03/19/512/2435-son)

Oldingi tahrirga qarang.

(25⁴-modda O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

Oldingi tahrirga qarang.

25⁵-modda. Xalq deputatlari Kengashi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi hududiy bo'linmalari rahbarlarining hisobotlarini eshitish

Viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmalari va Toshkent shahar sog'liqni saqlash bosh boshqarmasi rahbarlari har yarim yillik yakunlari bo'yicha tegishincha xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlariga hududda sog'liqni saqlashni rivojlantirishga oid davlat dasturlarining bajarilishi, kasalliklar profilaktikasining holati, sog'lom turmush tarzini va to'g'ri ovqatlanishni shakllantirish, shuningdek sog'liqni saqlashning asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida hisobot taqdim etadi.

Viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmalari va Toshkent shahar sog'liqni saqlash bosh boshqarmasi rahbarlarining hisobotini eshitish yakunlari bo'yicha tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan ularning faoliyati samaradorligiga baho beriladi, hududdagi sog'liqni saqlash sohasidagi mavjud muammolar va kamchiliklarni hal etishga, shu jumladan ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini oshirishga, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga, tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini oshirishga hamda ularning ijtimoiy himoya qilinishini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilanadi, shuningdek tegishli qaror qabul qilinib, qaror O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligiga yuboriladi.

Tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarining rahbarlari har yarim yillik yakunlari bo'yicha tegishincha xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga hududda sog'liqni saqlashni rivojlantirishga oid davlat dasturlarining bajarilishi, kasalliklar profilaktikasining holati, sog'lom turmush tarzini va to'g'ri ovqatlanishni shakllantirish, shuningdek sog'liqni saqlashning asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida hisobot taqdim etadi.

Tuman (shahar) tibbiyot birlashmalari rahbarlarining hisobotini eshish yakunlari bo'yicha tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan ularning faoliyati samaradorligiga baho beriladi, hududdagi sog'liqni saqlash sohasidagi mavjud muammolar va kamchiliklarni hal etishga, shu jumladan ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini oshirishga, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga, tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini oshirishga hamda ularning ijtimoiy himoya qilinishini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilanadi, shuningdek tegishli qaror qabul qilinib, qaror sog'liqni saqlashni boshqarish hududiy organlariga yuboriladi.

(25⁵-modda O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 4-oktabrdagi O'RQ-870-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.10.2023-y., 03/23/870/0753-son)

Oldingi tahrirga qarang.

25⁶-modda. Kengash so'rovi

Xalq deputatlari Kengashi tegishli hududda joylashgan davlat organlari va tashkilotlarining mansabdor shaxslariga qonunlarning, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining ijrosi masalalari hamda ularning vakolatlariga kiradigan boshqa muhim masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtai nazarini bayon etish talabi bilan Kengash so'rovini yuborishga haqli.

Kengash so'rovi tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning, surishtiruv va tergov organlarining, sudlarning ish yurituvdagi muayyan ishlar va materiallarga, shuningdek ijro ishi yuritish hamda notarial ish yuritishning muayyan materiallarini ko'rib chiqish bilan bog'liq faoliyatga taalluqli bo'lishi mumkin emas.

Kengash so'rovini yuborish to'g'risidagi taklif Kengashning deputatlari, doimiy va muvaqqat komissiyalari, partiya guruhlarining tashabbusi asosida Kengash sessiyasida ko'rib chiqiladi.

Kengash so'rovining tashabbuskorlari tomonidan Kengash so'rovi loyihasi tayyorlanib, u Kengashning navbatdagi sessiyasi kun tartibiga kiritish uchun Kengash raisiga yuboriladi.

Kengash so'rovi loyihasiga uni asoslantiruvchi zarur materiallar ilova qilinadi. Kengash so'rovi loyihasida so'rovga javob berishning shakli (og'zaki yoki yozma) to'g'risidagi talablar bo'lishi kerak.

Kengash so'rovini yuborish to'g'risidagi qaror Kengash deputatlari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Davlat organlarining mansabdor shaxslari Kengash so'roviga og'zaki javobni Kengash tomonidan belgilangan muddatda Kengash sessiyasida beradi.

Davlat organlari va tashkilotlarining mansabdor shaxslari Kengashning so'roviga yozma javobni, agar boshqa muddat belgilangan bo'lmasa, so'rov olingan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay yuborishi kerak.

Kengash so'roviga javobda so'rovda qo'yilgan masalalarning har biri bo'yicha aniq va batafsil asoslantirilgan ma'lumotlar ochib berilishi kerak.

Kengashning so'roviga javob so'rov o'z nomiga yuborilgan mansabdor shaxs yoki uning vazifalarini vaqtincha bajarayotgan shaxs tomonidan imzolanadi.

Kengash so'roviga yozma javob Kengashning sessiyasida raislik qiluvchi tomonidan o'qib eshittiriladi. Yozma javobning ko'chirma nusxalari javob Kengashning sessiyasida o'qib eshittirilguniga qadar deputatlarga yuboriladi.

Kengash so'rovlariga javoblar Kengash sessiyasida muhokama qilinadi va uning yakunlari bo'yicha tegishli qaror qabul qilinadi.

(25⁶-modda O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

Oldingi tahrirga qarang.

25⁷-modda. Kengash tekshiruvi

Kengash tekshiruvi tegishli hududning xavfsizligiga, barqaror rivojlanish asoslariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan, inson huquqlari va erkinliklariga, jamiyat va davlat manfaatlariga tahdid soladigan faktlar hamda voqealarni o'rganish maqsadida o'tkazilishi mumkin.

Kengash tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi Kengash qarori deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning, surishtiruv va tergov organlarining, sudlarning ish yurituvdagi muayyan ishlar va materiallarni, shuningdek ijro ishi yuritish hamda notarial ish yuritishning muayyan materiallarini ko'rib chiqish bilan bog'liq faoliyat Kengash tekshiruvining obyekti bo'lishi mumkin emas.

(25⁷-modda O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

Oldingi tahrirga qarang.

25⁸-modda. Kengash tekshiruvini o'tkazish bo'yicha komissiya

Kengash tekshiruvini o'tkazish uchun Kengash deputatlari orasidan Kengash tekshiruvini o'tkazish bo'yicha komissiya tuziladi.

Komissiya Kengash tekshiruvini o'tkazishda quyidagilarga haqli:

davlat organlari va tashkilotlarining vakillarini, mutaxassislarni, ekspertlarni komissiya ishiga jalb etishga;

davlat organlari va tashkilotlaridan, jismoniy va yuridik shaxslardan zarur ma'lumotlarni so'rab olishga;

davlat organlari va tashkilotlarining, nodavlat tashkilotlarning mansabdor shaxslarini, shuningdek fuqarolarni tushuntirishlar berish uchun taklif qilishga.

Kengash tekshiruvini natijalariga ko'ra komissiyaning yakuniy hisoboti tayyorlanib, u Kengash sessiyasida ko'rib chiqish uchun Kengashga kiritiladi.

(25⁸-modda O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

VII BOB. XALQ DEPUTATLARI KENGASHI VA HOKIMNING FAOLIYATIDA QONUNIYLIKNING KAFOLATLARI

Oldingi tahrirga qarang.

26-modda. Xalq deputatlari Kengashi va hokim faoliyatining qonuniyligini nazorat qilish

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlarining qonunchilik normalariga muvofiq bo'lmagan qarorlari belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan bekor qilinadi.

Hokim xalq deputatlari Kengashining qonunchilikka zid qarorini qayta ko'rib chiqish to'g'risida Kengashga tegishli taqdimnoma kiritadi, bundan xususiy mulk huquqining, shuningdek yer uchastkasiga bo'lgan huquqning yuzaga kelishi uchun asos bo'lgan qarorlar mustasno. Kengash hokimning taqdimnomasini bir oylik muddatda ko'rib chiqib, Kengash qarorini o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risida qaror qabul qiladi. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi tomonidan hokimning taqdimnomasi qanoatlantirilmagan taqdirda, hokim Kengashning tegishli qarorini bekor qilish to'g'risida yuqori turuvchi Kengashga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga yoki sudga murojaat qilishga haqli.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori bilan bekor qilingan xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlarining qarorlari o'zining amal qilishini tugatadi.

Hokimlarning hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan to'xtatiladi yoki bekor qilinadi.

Hokimlarning qonunchilikka, shuningdek O'zbekiston Respublikasining davlat manfaatlariga zid bo'lgan hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan to'xtatiladi yoki bekor qilinadi, bundan xususiy mulk huquqining, shuningdek yer uchastkasiga bo'lgan huquqning yuzaga kelishi uchun asos bo'lgan hujjatlar mustasno.

(26-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

Oldingi tahrirga qarang.

26¹-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyatini cheklash

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining favqulodda holatni joriy etish to'g'risidagi farmonida favqulodda holat joriy etilgan hududda favqulodda holatning amal qilish davrida mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini to'liq yoki qisman to'xtatib turish nazarda tutilishi mumkin.

(26¹-modda O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-oktabrdagi O'RQ-976-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)

27-modda. Yuqori turuvchi hokimiyat organlari qarorlarining quyi organlar uchun majburiyligi

Yuqori turuvchi davlat hokimiyati organlari o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlar quyi organlarning ijrosi uchun majburiydir.

Oldingi tahrirga qarang.

28-modda. Xalq deputatlari Kengashi va hokim qabul qilgan hamda chiqargan hujjatlar ustidan sudga shikoyat qilish va protest keltirish

Xalq deputatlari Kengashi va hokim tomonidan qabul qilingan hamda chiqarilgan hujjatlar ustidan fuqarolar, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan sud tartibida shikoyat qilinishi, shuningdek prokuror tomonidan protest keltirilishi mumkin.

(28-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 16 avgustdagi O'RQ-708-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 17.08.2021-y., 03/21/708/0799-son)

29-modda. Hokimning prokuror protest bildirgan qarorlari qayta ko'rib chiqilishi majburiyligi

Hokimning O'zbekiston Respublikasining **Konstitutsiyasi** va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining hujjatlariga zid, prokuror protest bildirgan qarorlari shu hokimning o'zi tomonidan yoki yuqori turuvchi hokim yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, zaruratiga qarab esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qayta ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV

Toshkent sh.,
1993-yil 2-sentabr,
913-XII-son

(O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-y., 9-son, 320-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-y., 9-son, 241-modda; 1999-y., 1-son, 20-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004-y., 51-son, 514-modda; 2005-y., 52-son, 385-modda; 2007-y., 15-son, 153-modda; 39-son, 399-modda; 2008-y., 52-son, 513-modda; 2013-y., 52-son, 686-modda; 2014-y., 16-son, 177-modda, 20-son, 222-modda; 2015-y., 23-son, 301-modda; 2017-y., 24-son, 487-modda, 35-son, 914-modda, 37-son, 978-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.01.2018-y., 03/18/454/0493-son, 24.07.2018-y., 03/18/486/1559-son, 09.01.2019-y., 03/19/512/2435-son, 15.11.2019-y., 03/19/584/4025-son; 25.12.2019-y., 03/19/597/4193-son; 15.09.2020-y., 03/20/636/1276-son, 24.12.2020-y., 03/20/656/1661-son, 31.12.2020-y., 03/20/660/1682-son; 15.01.2021-y., 03/21/666/0032-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 17.08.2021-y., 03/21/708/0799-son, 29.12.2021-y., 03/21/740/1209-son; 03.03.2022-y., 03/22/756/0180-son, 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son, 30.06.2022-y., 03/22/782/0576-son; 28.10.2022-y., 03/22/797/0967-son; 21.01.2023-y., 03/23/815/0044-son; 06.10.2023-y., 03/23/870/0753-son; 19.12.2023-y., 03/23/883/0949-son; 14.08.2024-y., 03/24/943/0616-son; 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son)